

**O‘zbekistonda raqamli davlat xaridlari tizimining oliy ta’lim muassasalari moddiy-
texnik bazasini rivojlantirishdagi roli****The Role of the Digital Public Procurement System in Developing the Material and
Technical Base of Higher Education Institutions in Uzbekistan**

Oybekov Shohjahon Akmal o‘g‘li

TDIU davlat xaridlari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi

Oybekov Shohjahon Akmal ugli

Chief Specialist of the Public Procurement Department, TSUE

[*oybekov97shoh@tsue.uz*](mailto:oybekov97shoh@tsue.uz)

97-523-97-37

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli davlat xaridlari tizimining oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik ta’minotiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik va taqqoslash usullari qo‘llanilib, xarid hajmi va shartnomalar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Natijada tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *davlat xaridlari, raqamlashtirish, oliy ta’lim muassasalari, moddiy-texnik ta’minot, shaffoflik, samaradorlik, raqobat, elektron xarid tizimi*

Аннотация

В статье анализируется влияние цифровой системы государственных закупок на материально-техническое обеспечение высших учебных заведений Узбекистана. С использованием статистических и сравнительных методов выявлена взаимосвязь между объемом закупок и количеством контрактов. Предложены рекомендации по повышению эффективности системы.

Ключевые слова: *государственные закупки, цифровизация, высшие учебные заведения, материально-техническое обеспечение, прозрачность, эффективность, конкуренция*

Abstract

This article analyzes the impact of digital public procurement on the material and technical support of higher education institutions in Uzbekistan. Using statistical and comparative methods, a relationship between procurement volume and number of contracts is identified. Recommendations for improving system efficiency are proposed

Key words: *public procurement, digitalization, higher education institutions, material and technical support, transparency, efficiency, competition*



Kirish

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish darajasi ko'p jihatdan davlat xaridlari tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Xususan, xarid jarayonlarining tezligi, shaffofligi va raqobat muhiti ta'minlanishi ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriya jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda infratuzilma bilan ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat xaridlarini raqamlashtirish jarayoni ushbu tizimning institutsional sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilish va uni raqamli platformalar asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida xarid jarayonlarining ochiqligi oshib, inson omili bilan bog'liq xatolar hamda korrupsiya xatarlarini kamaytirishga erishilmoqda. Jumladan, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda respublika bo'yicha jami 248,6 trln so'mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan bo'lib, qariyb 1,8 millionta shartnoma tuzilgan. Shu bilan birga, raqobatli xaridlar hisobidan 13,9 trln so'm miqdorida budget mablag'lari tejalgan hamda 268 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari ushbu jarayonga jalb etilgan. Mazkur ko'rsatkichlar davlat xaridlari tizimining iqtisodiy samaradorligi va institutsional rivojlanish darajasini aks ettiradi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259 farmonida tizim darajasida "raqobat-tejash-to'g'ridan-to'g'ri xaridlar ulushi" indikatorlari bo'yicha maqsadli vazifalar belgilangan (masalan, raqobatli usullardan foydalanish darajasini 80 foizga yetkazish, iqtisod qilingan mablag' miqdorini 25 trln so'mga yetkazish). Bu ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalarining laboratoriya jihozlari, IT infratuzilma, mebel va ta'mirlash ishlari kabi moddiy-texnik baza xaridlarida "narx-sifat-muddat" muvozanatini yaxshilash uchun muhim institutsional yo'nalishni anglatadi². Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda davlat xaridlari tizimining raqamlashtirilishi oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minotiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligi, institutsional afzalliklari va mavjud muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat xaridlarini raqamlashtirish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Xalqaro tadqiqotlarda elektron davlat xaridlari tizimlari xarid jarayonlarining shaffofligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini

¹ 2025-02-07. On the work done and results achieved in improving the public procurement system in 2024. gov.uz

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2025 y. PF-259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz
www.innovativepublication.uz



kamaytirish hamda raqobat muhitini kengaytirishda muhim instrument sifatida talqin etiladi. Xususan, Open Contracting Data Standard (OCDS) doirasida ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko'ra, davlat xaridlarining to'liq siklini raqamlashtirish ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash orqali manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi³. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa shaffoflik, raqamlashtirish va korrupsiyaga qarshi mexanizmlar asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Qozog'iston tajribasi davlat xaridlarini avtomatlashtirish, reyting-baho tizimini joriy etish va inson omilini kamaytirish orqali tizim samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat xaridlarini raqamlashtirish va ochiq axborot tizimlarini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda mahalliy tadbirkorlarning faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi⁴. Shu bilan birga, raqamli davlat xaridlarining korrupsiya darajasiga ta'siri masalasida ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, A. Jiménez va J. Hanoteau tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron xarid tizimlari korrupsiya xatarlarini kamaytirishi mumkinligi qayd etiladi, biroq bu ta'sir bevosita institutsional muhit sifati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Ya'ni, raqamli platformalarning o'zi yetarli emas, balki ularni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va nazorat mexanizmlarining rivojlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega⁵. Boshqa tomondan, A. Soylu va hammualliflar tadqiqotlarida davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlashda ma'lumotlar sifati muhim cheklovchi omil sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikricha, agar ochiq ma'lumotlar to'liq, standartlashtirilgan va qayta ishlashga yaroqli bo'lmasa, raqamlashtirish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Bu yondashuv raqamli transformatsiya jarayonining faqat texnologik emas, balki institutsional va axborot sifatiga bog'liq kompleks jarayon ekanligini ko'rsatadi.⁶

Universitet xaridlari nafaqat “sotib olish”, balki ilmiy asbob-uskunalar va ta'minotchilar innovatsiyalariga ham turtki berishi mumkinligi ko'rsatilgan. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi uchun xaridlarini amalga oshirishda texnik topshiriq, sifat mezonlari va shartnoma ijrosi monitoringi muhimdir⁷. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonun qabul qilingandan boshlab davlat xaridlari institutlarini, shuningdek maxsus axborot portali orqali e'lonlar, natijalar va boshqa ma'lumotlarni elektron shaklda ko'rish hamda operatorlar kiritgan ma'lumotlarni jamlash

³ 2021. Defining Open Contracting Data Standard Functional Requirements for Electronic Government Procurement Systems. standard.open-contracting.org

⁴ Turabov, S. A. (2024). O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: xorijiy tajriba va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari. *Kokand University Herald*, (12). <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.989>

⁵ A Jiménez, J Hanoteau. E-procurement and firm corruption to secure public contracts: The moderating role of governance institutions and supranational support. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.05.070>

⁶ Soylu, A., Corcho, Ó., Elvessæter, B., Badenes-Olmedo, C., Yedro-Martínez, F., Kovacic, M., Posinkovic, M., Medvešček, M., Makgill, I., Taggart, C., Simperl, E., Lech, T. C., & Roman, D. (2022). Data Quality Barriers for Transparency in Public Procurement. *Information*, 13(2), 99. <https://doi.org/10.3390/info13020099>

⁷ Sofia Patsali. University procurement-led innovation: Sources, procedures, and effects. Some field-study evidence. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2023.102901>
www.innovativepublication.uz



mexanizmini belgilaydi⁸. [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining](#) 2024-yil 20-dekabrda “2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 865-sonli qarorida raqamli texnologiyalarni kengaytirish, shartnoma majburiyatlarini monitoring qilish, risklarni boshqarish va “yashil” xaridlarni kengaytirish yo‘nalishlari belgilangan⁹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevral “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–17 farmoni sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari institutlarini yangilash, shu jumladan reyting/ball tizimlari orqali ishlab chiqaruvchi va ta‘minotchilarni baholash kabi mexanizmlarni rivojlantirishga doir yo‘nalishlar bilan bog‘lanadi¹⁰. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda davlat xaridlarini raqamlashtirishning oliy ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasiga ta‘siri aynan ushbu kompleks yondashuv doirasida ko‘rib chiqiladi va mavjud nazariy qarashlar amaliy ma‘lumotlar asosida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat xaridlari tizimining raqamlashtirilishi va uning oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik ta‘minotiga ta‘sirini o‘rganish maqsadida aralash yondashuv qo‘llanildi. Dastlab, normativ-huquqiy hujjatlar (qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari) tahlil qilinib, davlat xaridlarini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlari aniqlashtirildi. Ushbu bosqichda tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Keyingi bosqichda statistik tahlil asosida 2021–2024 yillar davomida davlat xaridlari hajmi, uning YAIMga nisbati, shartnomalar soni va budjet mablag‘lari tejalishi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida raqamli davlat xaridlarining shaffoflik, raqobat va samaradorlikka ta‘siri baholanib, ularning oliy ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirishdagi o‘rni aniqlashtirildi. Tadqiqotda asosan rasmiy statistik ma‘lumotlar va ochiq axborot manbalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Oliy ta‘lim sohasida davlat xaridlarining amaliy ko‘rsatkichlari ham raqamli tizimlarning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yil davomida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi kesimida jami 115 mingdan ortiq shartnomalar tuzilib, ularning umumiy qiymati 3,2 trln so‘mni tashkil etgan¹¹. Ushbu ko‘rsatkichlar oliy ta‘lim tizimida davlat xaridlarining yuqori darajada faolligini va moddiy-texnik ta‘minot jarayonining keng ko‘lamda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur ma‘lumotlar davlat xaridlarining nafaqat makroiqtisodiy, balki tarmoq (sektor) darajasida ham muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Ko‘p sonli shartnomalar mavjudligi xarid jarayonlarining

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son. Lex.uz

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2024 yildagi 865-son. Lex.uz

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.02.2026 yildagi PF-17-son. Lex.uz

¹¹ xarid.imv.uz



fragmentatsiyalashganligini, ya’ni turli turdagi tovar va xizmatlar bo’yicha keng qamrovli ta’minot tizimi shakllanganini anglatadi. Shu bilan birga, umumiy xarid hajmining yuqoriligi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangilash va rivojlantirishga yo’naltirilgan moliyaviy resurslar hajmining sezilarli ekanligini ko’rsatadi.

Jadval 1 Oliy ta’lim muassasalarining 2025-yildagi davlat xaridlaridagi ishtiroki

OTM nomi	Shartnomalar soni	Summa (so‘m)
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti	339	61,5 mlrd
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	119	20,9 mlrd
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti	135	18,0 mlrd
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	139	17,4 mlrd
Qoraqalpoq davlat universiteti (Berdaq nomidagi)	288	15,3 mlrd

Manba: *xarid.imv.uz ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi*

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimining raqamlashtirilishi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yuqorida keltirilgan empirik ma’lumotlar ushbu tizimning amaliy natijalarini aniq tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yil davomida eng yuqori xarid hajmiga ega bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari kesimida sezilarli moliyaviy resurslar jalb etilgani kuzatiladi. Jumladan, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 339 ta shartnoma doirasida 61,5 mlrd so‘mlik xaridlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu oliy ta’lim tizimida davlat xaridlarining yuqori intensivlikda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar ilmiy adabiyotlarda ta’kidlangan “raqamlashtirish → shaffoflik → raqobat → samaradorlik” zanjirining amaliy tasdig‘i sifatida qaralishi mumkin. Ko‘p sonli shartnomalar mavjudligi xarid jarayonlarining fragmentatsiyalashganligini, ya’ni turli yo‘nalishlarda (laboratoriya jihozlari, IT infratuzilma, xizmatlar) keng qamrovli xaridlar amalga oshirilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, yuqori umumiy xarid summalari oliy ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga yo’naltirilgan investitsiyalar hajmining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xarid hajmi va shartnomalar soni o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjud. Masalan, Samarqand davlat universiteti va Qoraqalpoq davlat universitetida shartnomalar soni yuqori bo‘lishi bilan birga umumiy xarid summasi ham katta hajmni tashkil etadi. Bu esa xarid jarayonlarining faol va tizimli olib borilayotganini anglatadi. Boshqa tomondan, ayrim universitetlarda nisbatan kamroq shartnoma orqali yuqori qiymatli xaridlar



amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin, bu esa yirik infratuzilma yoki kapital xaridlar mavjudligini bildiradi. Umuman olganda, olingan empirik natijalar davlat xaridlarini raqamlashtirish oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Biroq, ushbu ta’sirning samaradorligi xaridlarni rejalashtirish sifati, texnik topshiriqlarning aniqligi hamda nazorat mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli, raqamli davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda uning institutsional va boshqaruv jihatlarini ham rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat xaridlari tizimining raqamlashtirilishi oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Empirik tahlillar asosida xarid hajmi va shartnomalar soni o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi, bu esa xarid jarayonlarining faollashuvi moddiy resurslar hajmining ortishiga olib kelayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda xarid samaradorligi darajasi turlicha ekanligi kuzatildi. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, raqamlashtirish jarayoni o‘z-o‘zidan yuqori samaradorlikni ta’minlamaydi. Xarid natijalari ko‘proq texnik topshiriqlarning sifati, ma’lumotlarning to‘liqligi va nazorat mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq holda shakllanadi. Demak, davlat xaridlari tizimining institutsional jihatlarini takomillashtirish raqamlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, davlat xaridlari ma’lumotlarini standartlashtirish va ochiqligini oshirish, oliy ta’lim muassasalari uchun xarid samaradorligi indikatorlarini joriy etish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda ekspertiza tizimini kuchaytirish hamda raqamli monitoring va kadrlar malakasini oshirish tizimlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2025-02-07. On the work done and results achieved in improving the public procurement system in 2024. gov.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2025 y. PF-259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni. Lex.uz
3. 2021. Defining Open Contracting Data Standard Functional Requirements for Electronic Government Procurement Systems. standard.open-contracting.org
4. Turabov, S. A. (2024). O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: xorijiy tajriba va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari. Kokand University Herald, (12). <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.989>
www.innovativepublication.uz



5. A Jiménez. J Hanoteau. E-procurement and firm corruption to secure public contracts: The moderating role of governance institutions and supranational support. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.05.070>
6. Soylu, A., Corcho, Ó., Elvesæter, B., Badenes-Olmedo, C., Yedro-Martínez, F., Kovacic, M., Posinkovic, M., Medvešček, M., Makgill, I., Taggart, C., Simperl, E., Lech, T. C., & Roman, D. (2022). Data Quality Barriers for Transparency in Public Procurement. *Information*, 13(2), 99. <https://doi.org/10.3390/info13020099>
7. Sofia Patsali. University procurement-led innovation: Sources, procedures, and effects. Some field-study evidence. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2023.102901>
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son. Lex.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2024 yildagi 865-son. Lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.02.2026 yildagi PF-17-son. Lex.uz
11. xarid.imv.uz